

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH UCHUN SHART-SHAROITLARNI YARATISH.

Ermатов Dilshod

Shukurov Javohir

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Maktab menejmenti 4-bosqich talablari

Annotatsiya; Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim ya'ni inklyuziv ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, maktabgacha ta'lim tizimidagi imkoniyati cheklangan bolalarga o'z tengdoshlari qatorida ta'lim berish va inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, turli vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat, pedagogik texnologiyalar, ijodiy yondashuv .

Аннотация: В данной статье сегодня в нашей стране в организациях дошкольного образования внедряется образование для детей с особыми потребностями, т.е. система инклюзивного образования, детям с ограниченными возможностями в системе дошкольного образования предоставляются равные возможности среди сверстников. Сказано, что новые решения приняты постановления и поставлены различные задачи по обеспечению образования и развитию системы инклюзивного образования.

Ключевые слова: Образование, обучение, инклюзивность, развитие, совершенствование, действие, педагогические технологии, творческий подход.

Annotation: In this article, today in our country, education for children with special needs is being introduced in preschool education organizations, i.e. inclusive education system, children with disabilities in the preschool education system are provided with equal opportunities among their peers. It is said that new decisions have been adopted and

various tasks have been set to provide education and develop the inclusive education system.

Key words: Education, training, inclusiveness, development, improvement, action, pedagogical technologies, creative approach.

Zamonaviy dunyoda ta'limga umumjamiyat farovonligining bosh omili, insonning asosiy huquqlaridan biri va boshqa huquqlarni ta'minlashning asosi, shuningdek, tinchlik, bag'rikenglik, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish va barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Shuningdek, inklyuziv va sifatli ta'limni ta'minlash va hamma uchun butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish bugungi kunda butun dunyo tanlagan 2030 yilga qadar erishilishi lozim bo'lgan ta'lim maqsadlarining bosh g'oyasini tashkil etadi. Yurtimizda inklyuziv maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun rivojlanishining dastlabki davrlaridanoq jismoniy va psixik rivojlanish xususiyatlariga mos holda sifatli ta'lim-tarbiya olishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ana shu maqsadlarga mos keladi. O'z navbatida mazkur turdagi ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning yangi pedagogik texnologiyalari, modellari va metodlarini amaliyotga joriy etish esa maktabgacha ta'lim pedagogikasi oldida turgan dolzarb masalalardan birini ifoda etmoqda. Hozirgi O'zbekiston barcha sohalarda va jahon tendensiyalari asosida jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Milliy ta'lim siyosatining zamonaviy va amaliy yo'nalishlaridan biri inklyuziv ta'limni rivojlantirishdir. Buning uchun alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyatga qo'shib ta'lim olishlari uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur hujjatda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish imkonini beruvchi qator huquqiy va tashkiliy vazifalar belgilab berilgan.

Inklyuziv ta'lim - aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga olib kirish ma'nosida qo'llanib, integratsiyadan farqli ravishda “Bola huquqlari to'g'risida” gi Konvensiyaga muvofiq tarzda barcha bolalarning ta'lim olishdagi huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Barcha bolalarning birgalikda ta'limlari ularning har biriga individuallashtirilgan ta'lim asosida amalga oshiriladi. Ya'ni u yoki bu jihatdan rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalar barcha sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olsalarda, ular o'z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'lim ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari ta'minlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanligini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi - “Inklyuziv maktablardan - inklyuziv jamiyat sari” shiori asosida qurilgan.

Inklyuziv ta'limda kimlar qamrab olinadi ?

Barcha bolalarni. Bizning modelimizda esa, barcha bolalarni, agar u og'ir muammoga ega bo'lmasa va o'z - o'ziga xizmat qilishda no'ta qiyinchilik kuzatilmasa hamda atrofdagilarga o'ta halal bermasa. Hozirgi sharoitimizda eng avval yengilroq muammolarga ega bo'lgan bolalar -zaif ko'ruvchi, zaif eshtuvchi, yengil darajadagi aqli zaif - debil bolalar, tayanch harakat tizimida (chuqur buzilishlari kuzatilmaydigan serebral falajga ega bo'lgan) muammolari bo'lgan bolalar jalb qilishdan boshlanishi maqsadga muvofiq. Vazirlar mahkamasining 2021 - yil 12 oktyabrdagi 638 - son qarori bilan tasdiqlangan “ Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida “ gi nizomni umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida jismoniy, aqliy sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar) uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish belgilab berilgan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim sinfi - maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf

ekanligi e'tirof etilgan. Mazkur nizom o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilarni imklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta'limi Boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik – tibbiy – pedagogik komissiya xulosasiga Ko'ra, ota – onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'lim sinflarida jami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinflarda Umumiy o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ommaviy tarzda o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga Maxsus (korreksion) dasturlar asosida o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan O'quvchilar soni 3 nafardan oshmasligi lozim. 2020-2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unda maxsus ta'limga muhtoj bolalar ta'limini tegishli davrgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi. O'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) soni optimallashtirilishi belgilab qo'yildi. Bolalarning qobiliyatlari va har qanday holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. Ma'lumki, maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi hamda inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Bunday ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi. Bunday ta'lim albatta bir tomonlama bo'lmaydi. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oilaning o'rnini muhim hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim masalalardan biridir. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. Inklyuziv maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachisi qanday sifatlarga ega bo'lish kerak? Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo o'qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo'lish va ta'lim sifati mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'limning vazifasi bolalarning qobiliyati va holatidan qat'iy nazar, ularga sifatli ta'lim berishdan iboratdir. Shu bilan birgalikda, imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan oddiy maktabda tarbiya va ta'lim olishlarini ta'minlash zarurligini nazarda tutadi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda inklyuziv ta'limning ahamiyati shundan iboratki, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ilk yoshidanoq oddiy bolalar qatorida sifatli ta'lim olishlarini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini hamda harakatlarini rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.
3. G.X.Temurova Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan. tdpujournal@mail.ru 139-1436er
4. D.B.Yakubjanova, X.S.Akramova, G.X.Temurova. —Mehnat va predmetli amaliy ta'lim texnologiyasi|| Darslik – T.: Metodist nashriyoti, 2023yil. 246 bet.
5. G.X.Temurova Issn 2181-9580 Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali 2020 2-son Jurnal

Internet manbalari:

- <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-limda-inklyuziv-ta-lim-tizimini-rivojlantirish>
- <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/inklyuziv-talim>
- <https://xs.uz/uz/post/inklyuziv-talim-barcha-uchun-molzhallangan-talim>